



ISLOM MOLIYA TASHKILOTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINING MOHIYATI

Qaxramonova Gulandom

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va
muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi
ORCID: 0009-0007-1966-1051
qaxramonovagulandom086@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom moliya tashkilotlari faoliyati samaradorligining iqtisodiy mohiyati, uning zamonaviy moliya tizimidagi o'рни hamda real sektorni moliyalashtirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada islom moliyasining asosiy tamoyillari — ribo, g'arar va maysirning taqiqlanishi, real aktivlarga tayanish, foyda va zararlarni adolatli taqsimlash hamda moliyaviy operatsiyalarning shariat talablariga muvofiqligi yoritilgan. Shuningdek, islomiy moliyalashtirish vositalari hisoblangan mushoraka, mudoraba, murobaha, ijara, salam, istisno, sukuk, qarzi hasana va takoful kabi instrumentlarning iqtisodiy mazmuni, ishlash mexanizmi, risk va daromadlilik xususiyatlari ochib berilgan. Tadqiqotda islom moliya tashkilotlarining moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish, kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, investitsion loyihalarni moliyalashtirish hamda tizimli moliyaviy xatarlarni kamaytirishdagi roli asoslangan. Xalqaro AAOIFI va IFSB standartlari islom moliya institutlari faoliyatining huquqiy, buxgalteriya va prudensial asoslarini shakllantirishda muhim metodologik manba sifatida baholangan. Maqolada islom moliyaviy vositalarining samaradorligi ularning risklarni taqsimlash, aktiv bilan ta'minlanganlik, ijtimoiy mas'uliyat va barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilish xususiyatlari orqali namoyon bo'lishi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, islom moliya tashkilotlari, samaradorlik, ribo, g'arar, maysir, mushoraka, mudoraba, murobaha, ijara, salam, istisno, sukuk, takoful, moliyaviy inklyuzivlik, risklarni taqsimlash.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Кахрамонова Гуландом

Научно-исследовательский центр «Научные основы
и проблемы развития экономики Узбекистана» при
Ташкентском государственном экономическом университете

Аннотация. Данной статье научно исследуется экономическая сущность эффективности деятельности исламских финансовых организаций, их роль в современной финансовой системе и значение в финансировании реального сектора экономики. В статье раскрыты основные принципы исламских финансов, включая запрет рибана, гарара и майсира, опору финансовых операций на реальные активы, справедливое распределение прибыли и убытков, а также соответствие финансовых сделок требованиям шариата. Особое внимание уделено экономическому содержанию,

механизму функционирования, уровню риска и доходности таких исламских финансовых инструментов, как мушарака, мудараба, мурабаха, иджара, салам, истисна, сукук, кард хасан и такафул. В исследовании обоснована роль исламских финансовых организаций в расширении финансовой инклюзии, поддержке субъектов малого и среднего бизнеса, финансировании инвестиционных проектов и снижении системных финансовых рисков. Международные стандарты AAOIFI и IFSB рассматриваются как важная методологическая основа правового, бухгалтерского и пруденциального регулирования деятельности исламских финансовых институтов. В статье научно обосновано, что эффективность исламских финансовых инструментов проявляется через распределение рисков, обеспеченность реальными активами, социальную ответственность и содействие устойчивому экономическому развитию.

Ключевые слова: исламские финансы, исламские финансовые организации, эффективность, риба, гарар, майсир, мушарака, мудараба, мурабаха, иджара, салам, истисна, сукук, такафул, финансовая инклюзия, распределение рисков.

THE ECONOMIC ESSENCE OF THE PERFORMANCE EFFICIENCY OF ISLAMIC FINANCIAL INSTITUTIONS

Khaxramonova Gulandom

Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics

Abstract. This article examines the economic essence of the performance efficiency of Islamic financial institutions, their role in the modern financial system, and their significance in financing the real sector of the economy. The paper analyses the fundamental principles of Islamic finance, including the prohibition of riba, gharar and maysir, the reliance of financial transactions on real assets, the equitable distribution of profit and loss, and the compliance of financial operations with Shariah requirements. Particular attention is paid to the economic content, operational mechanisms, risk characteristics and profitability potential of Islamic financial instruments such as musharakah, mudarabah, murabahah, ijarah, salam, istisna, sukuk, qard hasan and takaful. The study substantiates the role of Islamic financial institutions in expanding financial inclusion, supporting small and medium-sized enterprises, financing investment projects and reducing systemic financial risks. The AAOIFI and IFSB international standards are considered important methodological foundations for the legal, accounting and prudential regulation of Islamic financial institutions. The article argues that the efficiency of Islamic financial instruments is reflected in their ability to distribute risks fairly, ensure asset-backed financing, strengthen social responsibility and contribute to sustainable economic development.

Keywords: Islamic finance, Islamic financial institutions, efficiency, riba, gharar, maysir, musharakah, mudarabah, murabahah, ijarah, salam, istisna, sukuk, takaful, financial inclusion, risk-sharing.

Kirish.

So'ngi yillardagi islom moliyasini istiqbolli o'sishini hisobga olganda, uning nima sababdan moliylashtirishda muhimligi, moliyaviy inklyuzivligi ya'ni bu aholining barcha qatlamlari (ayniqsa kam ta'minlanganlar) uchun bank va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlashi, kichik hamda o'rta biznes tashkilotlarini qo'llab-quvvatlashi, eng muhimi hukumat uchun, uning har bir jabhadagi infratuzilmasiiga investitsiyalar kiritishi, prinsip jihatidan tizimli xavfni kamaytirish nuqtai nazaridan uning potensial hissasi har taraflama muhokama qilinmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

“Islomiy iqtisodiy adabiyotda moliyaviy vositalarning ma’lum belgilari bo’yicha turli tasniflari keltiriladi. Chet ellik olimlar Greys va Iqbol islomiy moliya vositalarini: bitimni amalga oshirish bilan bog’liq bo’lgan tranzaksion bitimlar va bank moliyaviy vositachi sifatida ishtirok etadigan bitimlarga ajratadilar. Islomiy moliya vositalari to’rt tarkibiy qismlar asosida shakllanadi” (Baydaulet, 2019):

- 1) Sotish: mulkka yoki mulk predmetiga egalik huquqini o’tkazish uchun;
- 2) Ijara: mulkdan foydalanish huquqini o’tkazishni ko’rish uchun;
- 3) Hadya: mulk huquqini haqsiz berish;
- 4) Ssuda: mulkdan foydalanish huquqini bepul berish.

Islom moliya tizimining eng asosiy ribo (foiz), g’arar va maysir kabi tushunchalari talqinidan mantiqan kelib chiqilsa, qolgan bandlar qoidalariga rioya etish shartlari kelib chiqadi, shu sababli uning asosiy qoidalarini quyidagi shaklda shunday xulosa qilsak bo’ladi: Ribo (foiz) atamasi (mablag’lar bilan ta’minlanuvchining) qarzdorning olgan asosiy miqdorga qo’shib to’lanishi lozim bo’lgan foiz stovkasiga, “puldani olinadigan pullik daromad”ga to’g’ridan to’g’ri dahldordir. Bu yerda islom moliyasi shartlari bo’yicha foydasidan ulush to’lab berish emas, balki tashkilot yoki tadbirkor tomonidan olingan foyda yoki zararni o’zaro taqsimlanmaydigan, oldindan o’rnatib qo’yilgan to’lovga muqobil fikr bayon qilinmoqda. Islom riboni ikki toifaga ajratadi: nasiya ribosi hamda fazl ribose (Al-Zuhaili, Wahbah, 2003):

– nasiya ribosi pullarni pulga ayirboshlashdagi foiz ribosida namoyon bo’ladi, bu yerda ayirboshlash kechiktirilgan yoki muddati uzaytirilgan bo’ladi va bu hozirgi kundagi moliyaviy amaliyotlarda keng qo’llanayotgan qo’shimcha to’lov uchun sabab hisoblanadi.

– fazl ribosi nozik amaliyot hisoblanadi va qo’lma-qo’l ayirboshlashda yoki barter ayirboshlashuvida namoyon bo’ladi, unda mahsulotlar o’zining jinsidagi mahsulotga teng miqdorda yoki pulga ayirboshlanishi shartligi talab qilinadi, ayirboshlashning man etilgan shakllarida tovarlar sifatida tafovutlar bo’lishi va bu noahloqiy orttirishga olib kelishi mumkin.

Malayziyalik olim Sudin Xorun (2012) islomiy moliya tizimida ishlatiladigan besh turdagi mahsulotlarni keltiradi: birinchi toifaga foyda va zararlarni taqsimlashga asoslangan mahsulotlar, ikkinchisiga esa oldi-sotdiga asoslangan mahsulotlarlar, uchinchisiga – mablag’ yig’imi va komissiyalarini o’z ichiga olgan mahsulotlar kiradi. To’rtinchi toifa bepul xizmatlarni, beshinchisi esa – yordamchi xizmatlarni o’z ichiga olgan mahsulotlarni bayon etib beradi.

Ibrohim Varde (2007) islomiy moliyalashtirishda qo’llaniladigan mahsulotlarni mazkur vositalardan foydalanishda vujudga keladigan huquqiy, moliyaviy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar yig’indisiga asoslanib tasniflaydi. Muvofiq ravishda u sotishga asoslangan murobaha, musovama, istisno’, salam, tavarruq va iyna kabi bitimlar kiradigan mahsulotlarni ajratadi. Ikkinchi guruhdagi moliyaviy mahsulotlar ijara (yollash)ga asoslangan mahsulotlardir. Uchinchi guruhga esa foyda va zararlarni bo’lishish taqsimoti hamda ulushli ishtirokka (muzoraba va mushoraka) asoslangan mahsulotlar kiradi. Islomiy moliyalashtirish yuzasidan rossiyalik mutaxassis R. I. Bekkin (2009) islomiy moliyaviy mahsulotlarning quyidagi tasnifini keltirgan:

– foyda va zararlarni taqsimlashdagi mexanizmiga asoslangan vositalar yoki moliyalashtirishning investitsiyaviy vositalari: muzoraba, mushoraka; – qarz bilan uzviy bog’liqlikda moliyalashtirishga asoslangan mahsulotlar: murobaha, salam, shuningdek, istisno’ va ijara.

Vohitov (2009) moliyaviy vositalarning eng ko’p tarqalgan ikki guruhini ko’rsatib o’tgan: kapitalda ishtirok etishga asoslangan vositalar va qarz bilan bog’liq moliyalashtirishga asoslangan vositalar. Kapitalda ishtirokiga asoslangan vositalarga R. R. Vohidov muzoraba va mushorakani, qarz bilan bog’liq moliyalashtirishga asoslangan vositalarga – murobaha, ijara, salam va sukukni kiritadi. Shu jihatdan ham, islomiy moliyalashtirish vositalari nafaqat muqobil moliyaviy mexanizm modeli, balki iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi vositalar sifatida ham namoyon bo’ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda islom moliya tashkilotlari faoliyati samaradorligining iqtisodiy mohiyatini ochib berish, islomiy moliyalashtirish vositalarining mazmuni, ularning ishlash mexanizmi hamda moliyaviy barqarorlikka ta'sirini ilmiy jihatdan asoslash maqsad qilingan. Tadqiqotning metodologik asosi islom moliyasi tamoyillari, shariatga muvofiq moliyaviy operatsiyalar, real aktivlarga asoslangan moliyalashtirish, foyda va zararlarni taqsimlash hamda risklarni adolatli boshqarish konsepsiyalariga tayanadi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, tasniflash, kontent-tahlil va institutsional yondashuv usullaridan foydalanildi. Ilmiy abstraksiyalash usuli orqali islom moliya tashkilotlari faoliyatining umumiy iqtisodiy mohiyati aniqlashtirildi. Tizimli yondashuv asosida islom moliyasi nafaqat alohida moliyaviy vositalar majmui, balki shariat tamoyillari, moliyaviy inklyuzivlik, real sektorni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq yaxlit moliyaviy tizim sifatida talqin qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Zamonaviy islomiy moliyalashtirishning asosiy vositalari-musharaka, mudaraba, murabaha, ijara, salam va istisna shartnomalarining iqtisodiy mohiyati, ishlash mexanizmi hamda ularning moliyaviy samaradorlikka ta'siri bilan ahamiyatlidir.

1-jadval.

Islom moliyalashtirish vositalarining turlari

Moliyaviy vositasi	Tavsifi, ma'nosi va ularga misollari
Mushoraka	Mulkka aloqador sherikchilik bo'lib, bir yoki bir necha ishtirokchilar birlashib mablag'larini ma'lum bir loyihaga yo'naltiradilar. Olinadigan daromadlar ulushar ishtirokida taqsimlanadi.
Murobaha	Bu ham sherikchilikning bir turi bo'lib, bir tomon mablag' bilan ishtirok etsa, ikkinchisi boshqaruvni o'z qo'lga oladi. Daromad oldindan kelishilinadi, zarar ko'rsa bir tomon mablag'iga, ikkinchisi mehnatiga kuyadi
Murobaha	Asosan savdoda mijozni ehtiyojidagi Tovar ustama bilan muddatli to'lovga beriladi
Tovarruq	Tavarruq savdosi o'rtada yana bir shxs aralashuvi bilan savdoni amalga oshishi, ya'ni sotuvchidan narxi ma'lum mulkini heyin berish sharti bilan sotib oladi, boshqa kishiga naqdga sotadi.
Salam (oldindan moliyalashtirish)	Sotuvchi va mijoz o'rtasida kelishilgan Tovar narxini oldindan moliyalashtirishga aloqador kelishuv. Mijoz ehtiyojidagi tovarga oldindan to'laydi, sotuvchi uni yetkazib beradi.
Istisno	Savdo shartlari salam bilan bir xil, farqi hali mavjud bo'lmagan tovar uchun mijoz to'lovni amalga oshiradi
Ijara	Sotuvchi yoki investor mijoz ehtiyojidagi mahsulotni oladi va mijozga foydalanishga beradi, kelishilgan muddatdan so'ng, tovar mijozning o'ziga yoki boshqa shaxsga soltilishi mumkin
Qarzi-hasana	Foizsiz qarz
Amana	Amaldagi islom banklarining omonatini anglatadi
Vadia	Bu shartnoma mulkni saqlash yuzasidan tuziladi. Bir tomon ikkinchi tomonga mulkni saqlash uchun topshiradi
Takoful	Islom sug'urtasi
Sukuk	Aktiv bilan ta'minlangan islomiy qimmatli qog'oz

Manba: muallif ishlanmasi.

Zamonaviy islomiy moliyaviy operatsiyalar xalqaro standartlar asosida tartibga solinadi. Jumladan, AAOIF (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions) tomonidan ishlab chiqilgan shariat standartlari islomiy moliyalashtirish vositalarining huquqiy va buxgalteriya asoslarini belgilab beradi. Shuningdek, IFSB (Islamic Financial Services Board) tomonidan risklarni boshqarish, kapital yetarliligi va prudensial nazorat bo'yicha xalqaro standartlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular islomiy moliya muassasalarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qiladi. Biznes va savdo borasida ushbu atama qo'shma tashkilot (oddiygina sherikchilik)ni anglatadi, bunda barcha sheriklar umumiy holatdagi foyda yoki zararni taqsimlaydilar, ushbu so'zning mazmuni islom huquqida ishlatiladigan "shirkat" atamasidan kengroqdir. Mushoraka atamasi "shirkat"ning xususiy bir shakli – "shirkat ul amval" bilan cheklangan, unda ikki yoki undan ortiq kishilar o'z kapitalini qo'shma savdo korxonaga investitsiya qiladilar. Ba'zan u "shirkat ul-amal"ni ham o'z ichiga oladi, unda sherikchilik xizmat ko'rsatish sohasida amalga oshiriladi (Muhammad Taqiy Usmani, 2002).

Kapitalda esa ikki tomon ishtirok etadigan tadbirkorlikka oid va moliyaviy ishtirokchining sherikchiligi. Foyda tomonlarning kelishuvi bo'yicha, zararlar esa kapitaldagi ishtirokka mutanosib taqsimlanishi mumkin (Vaxitov, 2002).

Musharaka islom fiqhida "shirkat" tamoyiliga asoslangan bo'lib, ikki yoki undan ortiq tomonlarning kapital va boshqaruvda ishtirok etishini anglatadi. AAOIFI (n.d) Mushoraka standartiga ko'ra foyda kelishilgan nisbatda, zarar esa kapital ulushiga mutanosib taqsimlanadi.

Musharaka-bu tomonlar o'rtasida kapital qo'shish asosida tashkil etilgan sheriklik bo'lib, bunda foyda oldindan kelishilgan ulushlarda, zarar esa kiritilgan kapital ulushiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Mazkur instrumentning asosiy afzalligi risk va daromadning adolatli taqsimlanishida namoyon bo'ladi. Bu esa moliyaviy barqarorlikni oshiradi hamda spekulyativ operatsiyalarni cheklaydi. Shu bilan birga, musharaka mexanizmi yuqori darajada monitoring va ishonch talab qilgani sababli amaliyotda nisbatan murakkab hisoblanadi.

Mudaraba shartnomasida bir tomon kapital (rabul-mal), ikkinchi tomon esa boshqaruv (mudarib) bilan ishtirok etadi. Foyda oldindan kelishilgan nisbatda taqsimlanadi, zarar esa faqat kapital egasiga tegishli bo'ladi (agar boshqaruvchining aybi bo'lmasa).

Sherikchilikning alohida turii bo'lib, sheriklarning biri boshqasiga tijoriy korxonaga investitsiya qilish uchun mablag'ini beradi.

Ishonch asosida moliyalashtirishning monandi bo'lib, kapital egasi bo'lgan bank o'z mablag'larini obro', tajriba va imkoniyatga ega tadbirkor (mudorib)ga samarali ishlatish uchun ishonib topshiradi. Bu holatda esa bank berilgan pullar evaziga garov talab qilish huquqiga ega emas. Investitsiya qilingan mablag'dan kelgan daromad bank va tadbirkor o'rtasida shartnoma imzolangan paytdagi bitimga muvofiq taqsimlanadi. Zararlar vujudga kelgan hollarda esa bank uni o'z bo'yniga oladi, muzorib esa bunday holatda o'zining faoliyati va sa'i harakati uchun mukofot ololmaydi (Al-Jarhi, 2002).

Ushbu vosita tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, moliyaviy resurslarga ega bo'lmagan, lekin biznes g'oyasi mavjud subyektlar uchun imkoniyat yaratadi. Biroq, axborot assimetriyasi va nazorat muammolari uning asosiy kamchiliklari hisoblanadi.

Murabaha shartnomasi savdo asosidagi bitim bo'lib, uning huquqiy asosi sotish qoidalariga asoslanadi. Ushbu instrument AAOIFI tomonidan ishlab chiqilgan Sharia Standard №8 asosida tartibga solinadi. Unda tovarning real mavjudligi va egalik huquqi muhim shart sifatida belgilangan. Murobaha dastlabki islomiy mazmunida-bu oddiygina sotuvdir. Sotishning boshqa shakllaridan uning yagona farq qiluvchi jihati shundaki– bu yerda sotuvchi oluvchiga, qancha xarajat qilgani va qo'shimcha qo'shilgan qiymat hisobiga qancha foyda olishini aniq ko'rsatadi. Bu sotishning alohida shakli bo'lib, sotuvchi sotilayotgan tovarning qiymatini aniq va ravshan ko'rsatadi va unga foyda yoki ustama qo'shgan holda, boshqa shaxsga sotadi. Murobaha-bu moliyalashtirishning shakli emas, balki «xarajat qo'shilgani» asosidagi oddiy

sotuvdir. Lekin to'lov muddatini uzaytirish mafkurasi qo'shilganda, u xaridorning tovarni sotib olish niyati mavjud bo'lganda, moliyalashtirish usuli sifatida ishlatila boshlangan. Islomiy nuqtai nazaridan murobaha mukammallikdan uzoq hisoblanadi, uni faqat iqtisodiyotni islomiylashtirish jarayonining o'tish bosqichi sifatida ishlatish va mudoraba hamda mushorakadan foydalanishning iloji bo'lmaganda qo'llash bilan cheklash kerak (Mufti Muhammad, 2002). Bank va uning xaridori o'rtasida kelishilgan baho bo'yicha tovarlarni oldi-sotdi qilish shartnomasi. Bank tovar yoki xom-ashyo, detallar komplektini mijoz nomidan sotib oladi, keyin tovarni mijozga sotish orqali foyda hamda ko'rsatilgan xizmat uchun ustama haq oladi (Sundararajan, 2002).

Murabaha-bu moliyaviy institut tomonidan mijoz so'roviga binoan tovarni sotib olib, unga ma'lum ustama qo'shgan holda muddatli to'lov asosida sotish shaklidir (AAOIFI)

Mazkur instrument islomiy bank amaliyotida eng keng tarqalgan vositalardan biri bo'lib, uning asosiy afzalligi past risk darajasi va aniq daromadlilikka ega ekanligidir. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar tomonidan murabahaning an'anaviy kreditga yaqinlashib ketish xavfi ham qayd etiladi.

Ijara shartnomasi ijaraga berish munosabatlarini tartibga soladi va u AAOIFI Sharia Standard №9 bilan muvofiqlashtirilgan. Mazkur standartda aktivga egalik, foydalanish huquqi va risklarning taqsimlanishi aniq belgilab berilgan. Ijara-moliyaviy vosita sifatida an'anaviy moliyaviy tizimdagi lizingga o'xshashdir. Mos ravishda esa AAOIFI ning xalqaro standartlariga ko'ra, ijara-bu operatsion jarayon bo'lib, uning doirasida muassasa yoki tashkilot buyumni sotib oladi va mijozga ijara to'lovi evaziga foydalanishga topshiradi. Kelishuv ijara muddati yakunida ijaraga olingan mulk ijaraga oluvchining mulki qilib berilishi mumkinligi to'g'risidagi va'da mavjud bo'lishini taqozo qilmaydi. Lizing-bir taraf (lizing beruvchi)ning biror bir (ko'char va ko'chmas) mulkni sotib olishi hamda boshqa taraf (lizing oluvchi)ga ma'lum muddatga lizingga berishidir, buning evaziga lizing beruvchi tomonlar o'rtasida avvaldan kelishilgan miqdorda ijara to'lovlari ko'rinishida ulush oladi.

Ijara-bu aktivni ma'lum muddatga ijaraga berish orqali daromad olish mexanizmi bo'lib, bunda mulk egasi aktivdan foydalanish huquqini mijozga topshiradi.

Ijara instrumenti real sektorni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u asosiy vositalarni moliyalashtirish imkonini beradi. Uning afzalligi aktiv bilan ta'minlanganligi, kamchiligi esa aktiv bilan bog'liq risklarning mavjudligidadir. Salam shartnomasi kelajakda yetkazib beriladigan tovar uchun oldindan to'liq to'lovni amalga oshirishni nazarda tutadi. Ushbu instrument asosan qishloq xo'jaligi sohasida qo'llaniladi. Oldi-sotdi ko'rinishidagi shartnomasi bo'lib, xaridor mol uchun oldindan to'lovni amalga oshiradi. Ushbu xarid mahsulot yetkazib berishni kechiktirish yoki xaridor tomonidan qarz sifatida mablag'berilishidir. Salam-bay forvard shartnomasi sifatida ko'rib chiqilishi ham mumkin, lekin ikki muhim jihati bilan oddiy forvard hamda fyuchers shartnomalaridan farq qiladi. Eng avvalosi, salam bayga ko'ra, mahsulotning butun bahosi bo'nak bilan to'lab berilishi kerak. Ikkinchidan, belgilangan muddat kelganda xaridor yetkazib berilgan mahsulotni qabul qilib olishi shart (Hans, 2009).

Salam ishlab chiqaruvchilarni moliyalashtirishda samarali vosita bo'lsada, yetkazib berish risklari uning asosiy kamchiligi hisoblanadi.

Istisna shartnomasi ma'lum bir mahsulotni buyurtma asosida ishlab chiqarishni moliyalashtirishga qaratilgan bo'lib, unda to'lov bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin.

Mazkur instrument infratuzilma loyihalari va sanoat ishlab chiqarishida keng qo'llaniladi. Uning afzalligi moslashuvchanlik bo'lsa, kamchiligi loyiha risklarining yuqoriligidadir.

Mazkur solishtirma jadval shuni ko'rsatadiki, islomiy moliyalashtirish vositalari o'zining iqtisodiy mohiyatiga qarab turli risk va daromadlilik ko'rinishigaga ega. Xususan, musharaka va mudaraba kabi sheriklikka asoslangan instrumentlar yuqori daromadlilik potensialiga ega

bo'lsa-da, ular bilan bog'liq risk darajasi ham yuqori hisoblanadi. Shu sababli, ushbu vositalar ko'proq uzoq muddatli investitsion loyihalarda qo'llaniladi. Murabaha esa amaliyotda eng keng tarqalgan instrument bo'lib, uning past risk va barqaror daromadlilik xususiyati moliyaviy institutlar uchun jozibador hisoblanadi. Ijara, salam va istisna instrumentlari esa real sektorni moliyalashtirishda muhim o'rin tutib, iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, islom moliyasining musulmon mamlakatlarda va undan tashqarida keng tarqalishining bir qancha sabablari bor:

–avvalo, islom moliyasi amaliyotlari ahloq asosida yuritiladi, uning ijtimoiy ma'sullik va xayriyaga dahldorligi;

–butun dunyodagi musulmonlar soni 1,7 mlrd.kishidan ortdi, jahonning barcha mamlakatlarida musulmonlarning mavjudligi islom moliyasi vositalariga talabni shakllantiradi;

–jahon moliyaviy inqiroz davrida ham islom banklari ko'rsatkichlari ahloqiy me'yorlarga rioya etish orqali barqaror va turg'un bo'lib qoldi;

– qarzlarga doir foiz stavkasi mavjud bo'lmagani uchun, pullarni qadrsizlanishi jarayoni, pul mablag'larini kiritish bilan bog'liq xatarlar va investitsiyalar safarbarligini sekinlashtiradi, bu o'z navbatida iqtisodiyotning barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

–mamlakatda ishonchga asoslangan moliyaviy aktivlar va foydalilikni ko'paytirishga ko'mak beradi;

–xalqaro darajada ham moliya muassasalari va birlashmalarning islom moliyasi infratuzilmasini shakllantiradi va ular faoliyatini standartlashtirish borasida ishtirokini oshiradi;

–jahonning eng yetakchi ta'lim muassasalarida islom moliyasi va bankchiligi bo'yicha oliy ta'lim dasturlarini tashkil etish va joriy etishga olib keldi.

Adabiyotlar/Литература/References:

AAOIFI (n.d.a) Shariah Standard (2026). No. 8: Murabaha. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions.

AAOIFI (n.d.b) Shariah Standard No. 9: Ijarah. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions.

AAOIFI (n.d.c) Shariah Standard No. 10: Salam. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions.

AAOIFI (n.d.d) Shariah Standard No. 11: Istisna. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions.

AAOIFI (n.d.e) Shariah Standard No. 12: Musharakah. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions.

AAOIFI (n.d.f) Shariah Standard No. 13: Mudarabah. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions.

Al-Jarhi, M.A. (2002) 'Islamic finance: An efficient and equitable option', Islamic Research and Training Institute, Islamic Development Bank, p. 39.

Al-Zuhaili, W. (2003) Financial Transactions in Islamic Jurisprudence. Vol. 1. Translated by M.A. El-Gamal. Beirut: Dar al-Fikr.

Baydaulet, E.A. (2019) Islomiy moliya asoslari. Toshkent: O'zbekiston NMIU.

Bekkin, R.I. (2009) Musulmon va nomusulmon mamlakatlarda islomiy moliyaviy muassasalar va instrumentlar: xususiyati va rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Moskva: Rossiya Fanlar akademiyasi Afrika instituti.

Haron, S. and Wan Azmi, W.N. (2012) Islomiy moliyalar va bank tizimi: falsafasi, tamoyillari va amaliyoti. Qozon: Linova-Media.

Sundararajan, V. and Errico, L. (2002) Islamic Financial Institutions and Products in the Global Financial System: Key Issues in Risk Management and Challenges Ahead. IMF Working Paper No. 02/192. Washington, DC: International Monetary Fund.

Usmani, M.T. (2002) An Introduction to Islamic Finance. The Hague: Kluwer Law International.

Vakhitov, R.R. (2009) 'Islamic financial instruments: Ideas in taxation practice', Nalogoved, 9.

Visser, H. (2009) Islamic Finance: Principles and Practice. Cheltenham: Edward Elgar.

Warde, I. (2007) The Price of Fear: The Truth Behind the Financial War on Terror. London: I.B. Tauris.